

SCIENCE PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№ S/5 (3) - 2023

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРЬ МУАММОЛАРИ

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES
AND SOCIAL SCIENCES



ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
ELECTRONIC JOURNAL

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/5 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в.б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳаёти ва ҳуқуқшунослиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибраимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Crossref DOI:

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

Google Scholar

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал:
https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Кайпова Малика Дауытбай қизи</i> ҚОРАҚАЛПОҒИСТОНДАГИ ТАРИХИЙ МАДАНИЙ ОБЪЕКТЛАР ВА УЛАРНИНГ ҲУДУДДА ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ	9-13
<i>Фарманова Гульнара Комилевна</i> АРХЕОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ Г.А.ПУГАЧЕНКОВОЙ НА ТЕРРИТОРИИ САМАРКАНДСКОГО СОГДА	14-19
<i>Aminov Xurmatbek Baxram o'g'li</i> HUNARMANDCHILIK RIVOJI UCHUN YANGI IMKONIYATLAR	20-25
<i>Мустафоев Жонибек Аралбоевич</i> “ПАХТА ИШИ”НИНГ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ ҲАЁТГА ТАЪСИРИ ВА УНИНГ ФОЖИАЛИ ОҚИБАТЛАРИ (НАВОЙИ ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА)	26-31
<i>Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li</i> O'ZBEKISTON TARIXIY TARAQQIYOTNING ZAMONAVIY BOSQICHIDA IJTIMOY DAVLATNI SHAKLLANTIRISHNING KONSTITUTSIYAVIY ISTIQBOLLARI	32-36
<i>Маҳмудон Эркин Асқаралиевич</i> АРАБ ХАЛИФАЛИГИ ИСТИЛОСИ ДАВРИДА ФАРҒОНАДАГИ СИЁСИЙ ЖАРАЁНЛАР	37-45
<i>Назаров Комил Шамсуддинович</i> ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИ ТИЗИМИДА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ МАСАЛАЛАРИ	46-51
<i>Mamajonov Rahimjon Akramovich</i> O'ZBEKISTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDA TARIXCHI KADRLAR TAYYORLASH SOHASI HUQUQIY ASOSLARINING YARATILISHI	52-58

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Остонокулов Азамат Абдукаримович, Султонов Омон Жума ўғли</i> ДАВЛАТ ОТМЛАРИДА БЮДЖЕТДАН ТАШҚАРИ МАБЛАҒЛАР ҲАРАКАТИ ТЎҒРИСИДАГИ ҲИСОБОТЛАРНИНГ АХБОРОТ ИМКОНИАТЛАРИНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ	59-69
<i>Narmamatov Ixtiyor Baxtiyorovich</i> DEVELOPMENT ADVANTAGES OF CASHLESS PAYMENTS IN THE PAYMENT SYSTEM OF UZBEKISTAN	70-75
<i>Хамраев Джамшид Панжиевич</i> ТЕМИР ЙЎЛ ТРАНСПОРТИДА МАҲАЛЛИЙЛАШТИРИШНИ МОЛИЯЛАШТИРИШНИНГ ИҚТИСОДИЙ МОҲИЯТИ, РИВОЖЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ ВА ЗАРУРЛИГИ	76-81
<i>Кулибоев Азамат Шоназарович</i> ДАВЛАТ ТИББИЁТ ТАШКИЛОТЛАРИДА ҲИСОБ СИЁСАТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ УСЛУБИЁТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	82-91
<i>Axmedova Nazokat Zikirillo qizi</i> KORXONA MARKETING STRATEGIYASIDA RAQAMLI STRATEGIYADAN FOYDALANISH USULLARI VA AFZALLIKLARI	92-97

<i>Саатмуротов Шохрух</i> МИНТАҚАДА САНОАТ ИШЛАБ ЧИҚАРИШНИНГ БАҲОЛАШ ОМИЛЛАРИ	98-103
<i>Шакирова Фароғат Болтаевна</i> АҚШ ИҚТИСОДИЁТИНИНГ ИННОВАЦИОН ТИЗИМИ ОМИЛЛАРИ, ТАРКИБИ ВА РИВОЖЛАНИШ НАЗАРИЯСИ	104-113
<i>Кадиров Лутфулло Халимович</i> ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ МОЛИЯВИЙ БОШҚАРУВ ТИЗИМИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ МУАММОЛАРИ	114-121
<i>Ibragimova Zarema Zokirovna</i> DUNYONING IQTISODIY RIVOJLANGAN MAMLAKATLARINING BOSHQARUV TAHLILINI TASHKIL ETISH VA ULARNI ICHKI IQTISODIYOTGA TATBIQ ETISH TAJRIBASI	122-129
<i>Қодиров Азизжон Анварович</i> «COVID-19» ИНҚИРОЗИНИНГ ЖАҲОН ЭКОТУРИЗМ ИНДУСТРИЯСИ РИВОЖЛАНИШИГА ТАЪСИРИ	130-137

09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

<i>Sharipov Dilshod Baxshilloyevich</i> JON LOKKNING TABIIY HOLAT VA TINCHLIKKA OID QARASHLARI	138-145
<i>Raxmatova Xolidaxon Xolikovna</i> ХОҲА АҲРОР ВАЛИЙНИНГ ТИНЧЛИК, ОСОЙИШТАЛИК ВА ҲАМҶИНАТЛИККА ДОИР Г'ОЯЛАРИ – ВАРҚАРОР ТАРАҚҚИЙОТ ОМИЛИ СИФАТИДА	146-151
<i>Орзиев Иқболжон</i> АҲБОРОТЛАШГАН ЖАМИЯТДА СЕКУЛЯРИЗМ ОМИЛИНИНГ ИЖТИМОИЙ АҲАМИЯТИ	152-157
<i>Turabova Sevara Kattaqulovna</i> ILMIY MUAMMOLARNI HAL ETISHDA BAHS-MUNOZARALARNING TUTGAN O'RNI.....	158-165

10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

<i>Israil Mukaddas Irgashevna</i> BOSMA MEDIA TILINING SOTSIOLINGVISTIK ASPEKTD A O'RGANISH USULLARI	166-172
<i>Nishonova Xurshida Yusufjanovna</i> A'ZAM O'KTAM SHE'RIYATIDA MILLIY RUHNING IFODALANISHIDA E'TIQODIY QARASHLAR	173-178
<i>Маматкулова Камола Шавкат кизи</i> ИСТОРИЯ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ПОНЯТИЯ ПРЕЦЕДЕНТНОСТИ В ЛИНГВИСТИКЕ И ЕГО РОЛЬ В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ	179-184
<i>Hamroyeva Dilfuza Jamolovna</i> O'ZBEK XALQ QO'SHIQLARIDA YUZ SOMATIZMINING BADIY TALQINI	185-189
<i>Mahmudova Xushnoza Ravshanbekovna</i> OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA MOLIVAVIY SAVODXONLIKNI OSHIRISH	

MASALALARI	190-195
<i>Ismonova Yorqinoy Abdumutalib qizi</i> ROMANDA ROVIY BOLA OBRAZI.....	196-200
<i>Mirzoyev Masudjon Kimsanovich, Niholchonova Navbahor</i> FARZONA XO'JANDIY SHE'RLARIDA MIFOLOGIK PERSONAJLAR BADIY IFODASINING XUSUSIYATLARI	201-206
<i>Kholiyorov Bunyod</i> THE CONDITION OF DEVELOPMENT OF LEXICAL COMPETENCE USING AUTHENTIC MATERIALS IN TEACHING ENGLISH IN NON-PHILOLOGICAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS	207-213
<i>Hazratqulov Mutallib Rashidovich, Gulxanova Fotima, Qarshiboyeva Muborak</i> NUTQNI IDROK ETISH QONUNIYATLARI	214-219

12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

<i>Файзиев Шухрат Хасанович</i> ПОНЯТИЕ И ОСОБЕННОСТИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В КОНТЕКСТЕ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ	220-225
<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i> ATOM ENERGIYASINING XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI	226-233
<i>Safoeva Sadoqat Musoeva</i> IJTIMOIY TARMOQLARDA FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABATLARNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ISTIQBOLLARI	234-246
<i>Бокиев Жаҳонгир Нурматжон ўғли</i> АЛОҲИДА ТАЪЛИМ ЭҲТИЁЖЛАРИ БЎЛГАН ШАХСЛАРНИНГ ОЛИЙ ТАЪЛИМ ОЛИШ ҲУҚУҚИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ МАСАЛАЛАРИ	247-253
<i>Турсунова Маликахон Улуғбековна</i> ЗАМОНАВИЙ ДАВЛАТДА ДИПЛОМАТИК ФАОЛИЯТ ШАКЛЛАРИ: ИСЛОХОТЛАР ВА ҚОНУНЧИЛИК ТАРТИБОТИГА БЎЛГАН ЭҲТИЁЖ	254-258

13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

<i>Atamatov Abduxalil Salomovich</i> OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MUSTAQIL SOATLARNI O'QITILISHINING KOMPETENSIYAVIY O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	259-265
<i>Omarova Gavhar Sadikovna</i> HUQUQ FANINI O'QITISHDA TA'LIMNI TABAQALASHTIRISHNING PEDOGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI: DIDAKTIK O'YINLAR MISOLIDA	266-271
<i>Baratov Jo'raqo'zi Shukurjon o'g'li</i> BO'LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA NOSTANDART TOPSHIRIQLARNING ROLI VA AHAMIYATI	272-277

Kuchkarova Arofathon

THE IMPORTANCE OF GEOGEBRA IN ENHANCING STUDENTS' LEARNING OF MATHEMATICS
AT SCHOOLS 278-283

Tojiyeva Xolida Baxtiyorovna

UMUMTA'LIM MAKTABLARI ADABIYOT DARSLARIDA ASAR BADIYATINI O'QITISH
TARIXI 284-288

Masharipov Ravqat Madraximovich

KURASH BILAN SHUG'ULLANUVCHI TALABA SPORTCHILARDA TAYYORGARLIK
BOSQICHLARINI KUN VA HAFTALIK MIKROTSIKLLARDA MASHG'ULOT YUKLAMALARINI
OPTIMAL ME'YORLASH 289-295

Niyozmatov Anvar Bahodirovich

XORAZM XALQ O'YINLARI 296-303

Qodirov Xasanboy Oribjonovich

OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARIDA LIDERLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH
BOSQICHLARI 304-309

Kejaboev Abdusalim Erkaboevich

PEDAGOGIK MENEJMENT VA ZAMONAVIY RAHBAR KOMPETENTLIGI 310-315

Axmadjonova Farangiz Axrorjon qizi

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MASOFAVIY TA'LIM MAZMUNI VA TA'LIM JARAYONINI
TAKOMILLASHTIRISHNING DIDAKTIK – USLUBIY TA'MINOTI 316-322

13.00.00- Педагогика фанлари

Qodirov Xasanboy Oribjonovich

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent
axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona
filiali tadqiqotchisi dotsent

OLIV TA'LIM MUASSASASI TALABALARIDA LIDERLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasasi talabalarida liderlik sifatlarini shakllantirish bosqichlari va uning ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni va ahamiyati haqida muhokama qilinadi va kerakli yavsiiylar taqdim etiladi

Kalit so'zlar: liderlik sifatleri, ta'lim, demokratik jamiyat, bilimdonlik, donolik, ajdodlarimiz

Kadirov Hasanboy Oribjonovich

Researcher of the Fergana branch of the Tashkent University
of Information Technologies named after
Muhammad al-Khorazmi, associate professor

STAGES OF FORMING LEADERSHIP QUALITIES IN STUDENTS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Abstract. This article discusses the stages of formation of leadership qualities in students of a higher educational institution and its role and importance in improving the quality of education, and provides the necessary information.

Key words: leadership qualities, education, democratic society, knowledge, wisdom, our ancestors

Кадилов Хасанбой Орибжоновиц

Научный сотрудник Ферганского филиала
Ташкентского университета информационных
технологий имени Мухаммада ал-Хоразми, доцент

ЭТАПЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЛИДЕРСКИХ КАЧЕСТВ У СТУДЕНТОВ ВУЗА

Аннотация. В данной статье рассматриваются этапы формирования лидерских качеств у студентов высшего учебного заведения и их роль и значение в повышении качества образования, а также приводится необходимая информация.

Ключевые слова: лидерские качества, образование, демократическое общество, знания, мудрость, наши предки.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPI1342V3SI5Y2023N44>

Kirish. Insonni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash bashariyatning azaliy orzusi bo'lib, ajdodlarimiz yosh avlodlarga ma'rifat va madaniyatni o'rgatish, ularni komillikka yetaklash yo'llari, qonun-qoidalarini izlaganlar. Aristoteldan keyin, Sharq va G'arbda "Muallimi soniy", ya'ni "Ikkinchi muallim" nomi bilan mashhur bo'lgan Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri", "Yaxshi xulqlar", "Baxt-saodatga erishish haqida" kabi asarlarida sardor, liderga xos xislatlar haqida yozadi. Forobiy bunday fazilatlar deganda, bilimdonlik, donolik, mulohazalilik va vijdonlilik, kamtarlik, jamoa manfaatlarini yuqori qo'yish, haqiqiy ma'naviy komillikka intilish, adolatli bo'lish kabi xislatlarni tushungan.

Masalan, fozillar shahrining (davlat nazarda tutilgan) tarkib topishi va unda qanday axloqiy sifatdag shaxsning rahbar bo'lishi tasniflari bugungi demokratik jamiyat qurishning bevosita nazariy talablari bilan uyg'un keladi.

Adabiyotlar sharhi. Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri" asarida liderga xos bo'lgan 12 ta xislat haqida quyidagilarni ta'kidlaydi:

birinchidan, to'rt muchasi sog'lom bo'lib, o'ziga yuklangan vazifalarni bajarishda biror a'zosidagi nuqson halal bermasligi lozim, aksincha, u sog'-salomatligi tufayli bu vazifalarni oson bajarishi lozim;

ikkinchidan, tabiatan nozik farosatli bo'lib, suhbatdoshining so'zlarini, fikrlarini tez tushunib, tez ilg'ab olishi, shu sohada umumiy ahvol qandayligini aniq tasavvur qila olishi zarur;

uchinchidan, u anglagan, ko'rgan, eshitgan, idrok etgan narsalarni xotirasida to'la-to'kis saqlab qolishi, barcha tafsilotlarni unutmasligi zarur;

to'rtinchidan, zehni o'tkir, zukko bo'lib, har qanday narsaning bilinar-bilinmas alomatlari va u alomatlari nimani anglatishini tez bilib, sezib olishi zarur;

beshinchidan, u fikrini aniq tushuntirish maqsadida, uni chiroyli so'zlar bilan ifodalay olishi zarur;

oltinchidan, u (ustozlardan) ta'lim olishga, bilim, ma'rifatga havasli bo'lishi, o'qish-o'rganish jarayonida sira charchamaydigan, mashaqqatlardan qochmaydigan bo'lishi zarur;

yettinchidan, yeb-ichishda ochofat bo'lmasligi, aksincha, o'zini tiya olishi, (qimor yoki boshqa) o'yinlardan zavq, huzur olishdan uzoq bo'lishi zarur;

sakkizinchidan, u haq va haqiqatni, odil va haqgo'y odamlarni sevadigan, yolg'on va yolg'onchilarni yomon ko'radigan bo'lishi zarur;

to'qqizinchidan, u o'z qadrini biluvchi va nomus-oriyatli odam bo'lishi, pastkashlardan yuqori turuvchi, tug'ma oliyhimmat bo'lishi, ulug', oliy ishlarga intilishi zarur;

o'ninchidan, bu dunyo mollariga, dinor va dirhamlarga qiziqmaydigan (mol-dunyo ketidan quvmaydigan) bo'lishi zarur;

o'n birinchidan, tabiatan adolatparvar bo'lib, odil odamlarni sevadigan, istibdod va jabr-zulmni, mustabid va zolimlarni yomon ko'ruvchi, o'z odamlariga ham, begonalarga ham haqiqat qiluvchi, barchani adolatga chaqiruvchi, nohaq jabrlanganlarga madad beruvchi, barchaga yaxshilikni va o'zi suygan go'zalliklarni ravo ko'ruvchi bo'lishi zarur. O'zi haq ish oldida o'jarlik qilmay, odil ish tutgani holda har qanday haqsizlik va razolatlarga murosasiz bo'lishi zarur;

o'n ikkinchidan, o'zi zarur deb hisoblagan chora-tadbirlarni amalga oshirishda qat'iyatli, sabotli, jur'atli, jasur bo'lishi, qo'rqqoqlik va hadiksirashlarga yo'l qo'ymasligi zarur[1].

Liderlik va boshqaruv haqida soʻz ketganda, buyuk tarixiy shaxs, oʻrta asrning yirik davlat arbobi, mohir sarkarda, kuchli va markazlashgan davlat asoschisi, ilm-fan va madaniyat homiysi Sohibqiron Amir Temur xususida alohida toʻxtalib oʻtish joiz.

Muhokama va natija. Tarixdan maʼlumki, Amir Temur 7 yoshga toʻlgach, otasi uni oʻqishga beradi. U yoshlik chogʻlaridanoq chavandozlik, ov qilish, kamondan oʻq uzish kabi turli mashq va harbiy oʻyinlar bilan mashgʻul boʻlishni yoqtirar edi. Shu asnoda Amir Temur tulporlarni saralab ajrata oladigan mohir chavandoz va dovyurak bahodir sifatida voyaga yetadi. Uning atrofida bolalikdagi doʻstlari va maktabdoshlari toʻplanishib, birgalikda mashq qilar, musobaqalarda ishtirok etishar, asta-sekin harbiy guruhga birlashib, shakllana borishadi. Bu guruh orasida Abbos Bahodir, Jahon Shohbek, Kimori Inoq, Sulaymon Shohbek, Sayfuddinbek va boshqalar boʻlgan. Keyinchalik ular Amir Temurning safdoshlariga aylanib, uning qoʻshinida lashkarboshilik darajasiga koʻtarilganlar. Amir Temur tabiatan ogʻir, bosiq, teran fikrli va idrokli, turli fikrni tezda fahmlab oladigan liderlik qobiliyatiga ega inson boʻlgan. Shu tufayli oʻspirinlik chogʻlaridayoq tengqurlaridan sadoqatli doʻstlarni atrofiga jalb qila olgan.

U odob-axloq, iymon-eʼtiqod taʼlim-tarbiya sohasida yuksaklikka erishgan buyuk siymolardan biridir. Jahonga mashhur boʻlgan “Temur tuzuklari”da uning ibratli, hayotiy pand-nasihatlar va purmaʼno oʻgitlarining teranligi, taʼsirchanligi yaqqol namoyon boʻladi. Bu asarni davlat boshqaruvida, yoshlarda liderlikka xos xislatlarni va boshqaruv mahoratini shakllantirishda beqiyos xazina – qoʻllanma, deya olamiz.

Sohibqironning davlat boshqaruv tajribasi, liderlik haqidagi ilgʻor gʻoyalari, pand-nasihatlaridan hozirgi kunda ham dasturulamal sifatida foydalanish mumkin. Bu borada Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning “Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch” asaridagi quyidagi soʻzlar alohida eʼtiborga molik: “Sohibqiron Amir Temur haqida alohida toʻxtalishimiz tabiiydir. Chunki tengsiz azm-u shijoat, mardlik va donishmandlik ramzi boʻlgan bu mumtoz siymo buyuk saltanat barpo etib, davlatchilik borasida oʻzidan ham amaliy, ham nazariy meros qoldirdi, ilm-u fan, madaniyat, bunyodkorlik, din va maʼnaviyat rivojiga keng yoʻl ochdi.

Shaxsan men “Temur tuzuklari”ni har gal oʻqir ekanman, xuddiki oʻzimga qandaydir ruhiy kuch-quvvat topgandek boʻlaman. Oʻz ish faoliyatimda bu kitobga takror-takror murojaat qilib, undagi hech qachon eskirmaydigan, inson maʼnaviyati uchun bugun ham oziq boʻladigan hikmatli fikrlarning qanchalik hayotiy ekaniga koʻp bor ishonch hosil qilganman”[2].

Shaxsning liderlik imkoniyatini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlaridan biri insonda shakllangan qobiliyatga suyanish va qobiliyatni imkoniyatga qarab namoyon etishdir. Bunday yondashuv “vaziyatli liderlik” deb ataladi, unda lider deb tan olingan shaxsning umumiy maqsadga erishish yoʻlida muammoli vaziyatda oʻz qobiliyatini namoyon eta olishi tushuniladi[3]. Bu nazariyaga binoan, guruh bir necha liderga ega boʻlishi mumkin, kezi kelganda, har bir jamoa aʼzosi muammoli vaziyatni hal etish borasida oʻz qobiliyat va imkoniyatini namoyish eta oladi. Samarali faoliyat olib boruvchi rahbar oʻz jamoasida aynan shunday muhitni yaratishi kerakki, har bir xodim zarur vaziyatda oʻz imkoniyatini ishga solish orqali muammoli vaziyatni hal etishda faol qatnashishi va boshqaruv jarayonida ishtirok etayotganini anglasin. Buning uchun jamoa har qanday vaziyatni hal etishda masʼuliyatni his qiluvchi va professional xodimlarga ega boʻlishi lozim. Shu bilan birga, guruhda shunday xodimlar ham borki, ular yuzaga kelgan muammoli vaziyatlarni hal eta oluvchi universal qobiliyatga ega.

Yoshlar liderlariga xos xususiyatlarni quyidagi toifalarga boʻlish mumkin:

- ishonch – o‘z bilim va tajribasini qo‘llash;
- faollik – g‘ayrat bilan harakat qila olish;
- tashabbuskorlik – faollikning ijodiy namoyon bo‘lishi, g‘oyalar, takliflarni ilgari surish;
- bilimdonlik – ishni chuqur bilish orqali namoyon qilish;
- kirishimlilik – o‘zgalar bilan muloqotga tez kirishish, samimiy bo‘lish, insonlararo muloqotga ehtiyoj;
- zehnlilik – voqea-hodisaning mohiyatini tezda anglash, uning sabab va natijasini oldindan ko‘ra bilish, eng muhimini aniqlay olish;
- qunt-matonatlilik – iroda kuchini namoyon qila olish, qat‘iyatlik, ishni yakuniga yetkaza olish;
- dadillik – his-tuyg‘u va harakatlarini, ayniqsa, qiyin vaziyatlarda nazorat qila olish;
- mehnatkashlik – bardoshlilik, murakkab vazifalarni bajara olish qobiliyati;
- kuzatuvchanlik – ishni ko‘ra bilish, yo‘l-yo‘lakay muhimini ajratish, mayda-chuyda narsalarni fahmlay olish;
- tartiblilik – o‘z xatti-harakatlarini rejalashtira olish, ketma-ketlikni aniqlay olish;
- mustaqillik – mulohaza yuritishda mustaqillik, mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olish.

Yoshlar liderining o‘ziga xos xususiyatlari, ya‘ni liderlik iste‘dodining boshqalardan farqli ko‘rsatkichlari qatorida yana quyidagilarni qayd etish mumkin:

- tashkilotchilik ziyrakligi – o‘zgalarini tushunish, ularning ichki olamiga kira olish, individual fazilati, kayfiyatini inobatga olgan holda masalaga yondashish;
- faol psixologik ta‘sir kuchiga egalik – yuzaga kelgan vaziyatni hisobga olgan holda, ularning xususiyatidan kelib chiqib, insonlarga turli usullar bilan ta‘sir o‘tkaza olish;
- liderlik mas‘uliyatini o‘ziga olish.

Liderning asosiy xususiyatlaridan biri – yoshlar orasida “bir qadam oldin”da bo‘lish. [4] U yangiliklardan doimo xabardor, boshqalar uchun ochiq bo‘lmagan axborotga ega bo‘lishi kerak. Barcha jabhada yoki sohada axborotga egalik qilish boshqalardan ustun bo‘lish imkonini beradi. Lider bunday manbani qayerdan, qanday topishni yaxshi biladi. Bunday axborotga ega bo‘lmagan o‘spirinlar uning o‘rnini xayol, gumon va shubha bilan to‘ldiradi. Ular hayotidagi unutilmas kun yoki umuman bo‘lmagan voqealar bilan o‘rtoqlashadilar, bunday narsalarni yaxshi qabul qiladilar. Shu tariqa o‘spirinning liderlik xususiyatlari o‘z fikrini erkin bildirishida namoyon bo‘ladi. Yoshlar lideri aniq dalil va isbotlar bilan o‘z bilimini boyita oladi. Bunday holatda liderga nisbatan ishonch ortadi.

Yosh liderning yana bir xususiyati shundaki, u o‘ziga xos va takrorlanmas fikrlarni dadil bildiradi. U fikrlarini qiziqarli tarzda ifodalaydi va boshqalardan ham dadillik kutadi. Bunday xususiyatga ega bo‘lgan liderga yoshlar ishonadi va unga ergashadi. Shuning uchun yoshlarga liderlik xususiyatlari bilan birga axloqiy qoidalar asosi va ko‘nikmalarini singdirish hamda har bir xatti-harakatning natija va oqibatlarini anglashni o‘rgatish kerak. Bu, o‘z navbatida, barkamol, yetuk insonni shakllantirish imkonini beradi. Yoshlar va o‘spirinlar ichida turli ijtimoiy guruhlar, harakatlarga a‘zo bo‘lish alohida ahamiyat kasb etadi.

Rahbar uchun zarur xususiyatlardan yana biri – shaxsning o‘ziga bo‘lgan ishonchi. O‘ziga ishonchi bo‘lmagan rahbar vaziyat o‘zgarishi sababli o‘z qarorini o‘zgartirishi tabiiy. Bunday jamoada xodimlar o‘z rahbarini suyanchiq sifatida ko‘rmaydilar. Lider ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy holatlarda sherigi yoki hamkorida ishonch uyg‘otishi, ishning muvaffaqiyatiga kafolat

berishi, mas'uliyatni his etishi zamonaviy rahbar uchun muhim fazilat ekanini anglashi lozim. Bu jarayonda "ishonch" tushunchasi asosiy o'rin egallaydi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, lider shaxs tug'ma qobiliyatining yetarli darajada shakllanganligi bilan xarakterlanadi. Yuqorida aytganimizdek, liderning asosiy xususiyatlaridan biri – guruh manfaati haqida g'amxo'rlik. Shuning uchun "lider" ta'rifidagi asosiy ma'no shaxsning vaziyatni muvaffaqiyatli hal eta olish qobiliyati va guruh maqsadi yo'lidagi jonbozligi deb tushunilishi mumkin.

Liderlikni rivojlantirish aniq maqsadga yo'naltirgan holda tegishli ko'nikmalarni shakllantirish hamda mustahkamlashdir. Yoshlar tashkilotida liderlik bilan boshqarish muammosining ushbu jihati liderlik qobiliyatini o'rgatish hamda o'zi ham o'rganish, motivlashtirish, treninglar va amaliy tajriba orqali yanada rivojlantirish imkonini hisobga oladi.

Yoshlar tashkilotida yoshi, jinsi, millati va mavqeyi turlicha bo'lgan lider ijodkorlar uchraydi, masalan:

- harakatga keltiruvchi tashkilotchilar (rasmiy) liderlar;
- ruhiy kayfiyatga chorlovchi (da'vatkor) liderlar;
- tashabbuskor (ijodkor) liderlar;
- bilimdon (ilmiy salohiyatli) liderlar;
- mohir, ishbilarmon, ishni hammadan yaxshi (sifatli) bajara oladigan liderlar.

Yoshlar toifasining "o'quvchi yoshlar" guruhiga 14 yoshdan 21 yoshgacha va undan katta bo'lgan umumiy o'rta ta'lim-maktab, akademik litsey va kasb-hunar kolleji o'quvchilari hamda oliy ta'lim muassasalari talabalari kiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, barcha ta'lim tizimida yoshlarning ijodiy iste'dodlarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratish lozim. O'qituvchilarning asosiy vazifalaridan biri – yoshlarning tashabbuslari, innovatsion g'oya va fikrlarini, iste'dod va iqtidorini o'z vaqtida ko'ra olishi va uni ro'yobga chiqarish uchun ko'makdosh bo'lish.

Yoshlarda liderlik qobiliyati va boshqaruv mahoratini rivojlantirish orqali yuksak ma'naviyatli yetakchi yoshlarni tarbiyalash, ularni mamlakatimiz taraqqiyoti va uning istiqboli uchun yo'naltirish talab etiladi. Bunda quyidagi vazifalarni bajarish lozim:

- yetakchi va liderlik xususiyatlarini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslarini chuqur o'rganish;
- davlatimiz tomonidan yoshlarda liderlik qobiliyatini shakllantirish va boshqaruv mahoratini rivojlantirish sohasida olib borilayotgan ishlarni tizimli tahlil qilish;
- yoshlarda liderlik xususiyatlarini shakllantirishga ta'sir etuvchi turli ehtiyoj va omillarni o'rganish;
- yoshlar faolligini yanada oshirish orqali liderlik qobiliyati va boshqaruv mahoratini rivojlantirishda ularning yangi qirralarini yuzaga chiqarish va h.k.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Galeyeva N. A. Formirovaniye organizatorskix sposobnostey studentov vuza vo vneauditornoy deyatel'nosti: Avtoref. dis. ...kand.ped.nauk. -Krasnoyarsk, 2008. - 22 s
2. Plaxina L. N. Formirovaniye upravlencheskix kachestv pedagogov professionalnogo obucheniya (na materiale texnicheskogo vuza): Avtoref. dis. ...kand. ped. nauk. - M., 2010. - 24 s.

3. Shigapova L. P. Formirovaniye leaderskix kachestv studentov vuza v deyatelnosti organov studencheskogo samoupravleniya: dis. ...kand. ped. nauk. - Kazan, 2008. - 228 s.
4. Logvinov I.I. Liderstvo v usloviyax deprivasii kak odin iz sosialno-psixologicheskix aspektov upravlencheskoy deyatelnosti organizatorov obrazovaniya v rayonax s radioaktivnym zagryazneniyem// Yatroblemt bazovoy upravlencheskoy podgotovki i povыsheniya kvalifikasii organizatorov obrazovaniya. Tezisy meyvuzovskoy konferensii. - Kursk, 1994. - S. 74-76.
5. Mitina L.M. Psixologicheskaya diagnostika kommunikativnyx sposobnostey uchitelya. - Kemerovo: Kemerovskiy oblastnoy institut usovershenstvovaniya uchiteley, 1996. - 50 s.
6. Suxomlinskiy V.A. Mudraya vlast kollektiva: metodika vospitaniya kollektiva. - M.: Molodaya gvardiya, 1975. - 240 s.
7. Suxomlinskiy V.A. Serdse otdayu detyam. Rojdeniye grajdanina. Pisma k synu. - K.: Rad.shk. 1985. - 557 s.
8. Petrovskiy A.V. Lichnost. Deyatelnost. Kollektiv. – M.: Politizdat, 1982. - 255 s.
9. Raximov D. Istiqbolli liderlar uchun zaruriy ko'nikmalar: Xorijiy tahlillar asosida. – Toshkent, 2019.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ S/5 (3)-2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).